/ ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2025 Vol. 1 No. M 3-4
LINGUISTICS
DOI: 10.36078/987656152

Zeboxon Ochilova

Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya Universiteti
E-mail: ochilovazebo45@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-9976-7145

TIL VA IDENTITET: TARJIMALARDA MILLIYLIKNI SAQLASHNING NAZARIY ASOSLRI (“O‘TKAN KUNLAR” ROMANI MISOLIDA)

Annotatsiya. Mazkur maqola til va identitet o‘rtasidagi murakkab hamda ko‘p qatlamli munosabatlarni yoritish, shuningdek, badiiy tarjima jarayonida milliylikni saqlashning nazariy asoslarini aniqlashga bag‘ishlangan. Til insonning shaxsiy va ijtimoiy o‘zligini ifodalovchi, milliy ong, madaniy xotira va mentalitetni o‘zida mujassam etuvchi muhim vosita sifatida talqin qilinadi. Shu bois badiiy tarjima nafaqat lingvistik birliklarni bir tildan ikkinchisiga ko‘chirish, balki milliy madaniy mazmunni qayta ifodalash jarayoni sifatida baholanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi milliy qadriyatlar, madaniy kodlar va mental xususiyatlarning tarjima arayonida namoyon bo‘lish xususiyatlarini ochib berish hamda milliy identiklikning til birliklari orqali ifodalanish mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Vazifalar doirasida milliy koloritni ifodalovchi leksik va uslubiy vositalar, madaniy belgilangan birliklarning semantik yuklamasi hamda ularning tarjimada yuz beradigan o‘zgarishlari o‘rganildi. Metodologik jihatdan ish nazariy tahlil, qiyosiy yondashuv, kontekstual sharhlash va umumlashtirish usullariga tayandi. Amaliy tahlil uchun Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani tanlanib, undagi tarixiy-madaniy muhit, ijtimoiy qadriyatlar va milliy ruhning tarjimada qay darajada aks etgani ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari milliylikni saqlash tarjimaning mazmuniy to‘liqligi, badiiy ta’sirchanligi va madaniy mosligini ta’minlovchi muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjimada milliy identiklikni yetkazish asarning estetik va madaniy qiymatini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: til va identitet, milliylik, milliy identiklik, badiiy tarjima, madaniy kod, milliy kolorit, tarjima strategiyalar.

Zebokhon Ochilova

Tashkent University of Social Innovation
E-mail: ochilovazebo45@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-9976-7145

LANGUAGE AND IDENTITY: THE THEORIETICAL FAUNDATION OF PRESERVING NATIONAL IDENTITY IN TRANSLATION (A CASE STUDY OF THE NOVEL “OTKAN KUNLAR”)

Abstract. This article explores the complex and multilayered relationship between language and identity and examines the theoretical foundations for preserving national specificity in literary translation. Language is viewed as a key carrier of national consciousness, cultural memory, and collective mentality. From this perspective, literary translation is understood not only as the transfer of linguistic units but also as the representation of national and cultural meaning in another language. The main aim of the study is to identify how national values, cultural codes, and mental characteristics are reflected in translation and to analyze the mechanisms through which national identity is

expressed by linguistic means. The research focuses on lexical and stylistic elements that create national color, their semantic functions, and the transformations they undergo in translation. The methodological framework includes theoretical analysis, a comparative approach, contextual interpretation, and generalization. The novel Otkan kunlar by Abdulla Qodiriy serves as the practical material, as it reflects the historical and cultural environment, social values, and national spirit of its time. The findings demonstrate that preserving national specificity ensures semantic completeness, artistic expressiveness, and cultural adequacy in translation. In conclusion, conveying national identity in literary translation is crucial for preserving the aesthetic and cultural value of the work.

Keywords: language and identity, national identity, literary translation, cultural code, national color.

Зебохон Очилова

Ташкентский университет социальной инновации
E-mail: ochilovazebo45@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-9976-7145

ЯЗЫК И ИДЕНТИЧНОСТЬ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ САМОБЫТНОСТИ В ПЕРЕВОДЕ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «ОТКАН КУНЛАР»)

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию сложной и многослойной взаимосвязи языка и идентичности, а также теоретическим основам сохранения национальной специфики в художественном переводе. Язык рассматривается как ключевой носитель национального сознания, культурной памяти и менталитета народа. В этом контексте художественный перевод интерпретируется не только как передача языковых единиц, но и как процесс репрезентации национально-культурного содержания в иной языковой среде. Основная цель исследования заключается в выявлении особенностей отражения национальных ценностей, культурных кодов и ментальных характеристик в переводе, а также в анализе механизмов выражения национальной идентичности через языковые средства. В рамках работы были изучены лексические и стилистические элементы, формирующие национальный колорит текста, их семантическая нагрузка и изменения, возникающие при переводе. Методологическую основу составили методы теоретического анализа, сопоставительного подхода, контекстуальной интерпретации и обобщения. Практическим материалом послужил роман Абдуллы Кадыри «O‘tkan kunlar», отражающий историко-культурную среду, социальные ценности и национальный дух эпохи. Результаты показывают, что сохранение национальной специфики обеспечивает смысловую полноту, художественную выразительность и культурную адекватность перевода. В заключение, передача национальной идентичности в художественном переводе имеет решающее значение для сохранения эстетической и культурной ценности произведения.

Ключевые слова: язык и идентичность, национальная идентичность, художественный перевод, культурный код, национальный колорит.

KIRISH

Insoniyat tarixiga nazar tashlansa, har bir millatning o‘ziga xosligi uning tili, madaniyati va tarixiy tafakkuri orqali shakllanishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aynan shu omillar jamiyatning ma’naviy qiyofasini belgilaydi, uning qadriyatlar tizimini yaratadi va boshqa xalqlardan ajralib turishini ta’minlaydi. Til esa mazkur jarayonda markaziy o‘rin egallaydi, chunki u nafaqat muloqot vositasi, balki milliy xotira, tarixiy tajriba va madaniy merosni saqlovchi hamda avloddan avlodga yetkazuvchi muhim ijtimoiy hodisadir. Shu bois til va identitet masalasi zamonaviy tilshunoslik, madaniyatshunoslik hamda tar-

jimashunoslik yo‘nalishlarida dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda [Axmadjonov, 2025; 27 & Sapir, 1921; 45]. Milliy identitet tushunchasi insonning o‘zini muayyan millatga mansub deb his qilishi, o‘sha millatning qadriyatlari, urf-odatlari, dunyoqarashi va tarixiy tajribasini o‘zida mujassam etishi bilan tavsiflanadi. Bu hodisa faqat ijtimoiy yoki siyosiy jarayonlar doirasida emas, balki til orqali shakllanadigan madaniy ong bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Til birliklari, iboralar, maqollar, ramziy ifodalar va madaniy realiyalar milliy tafakkurning til orqali namoyon bo‘lish shakllaridir. Shuning uchun badiiy adabiyot milliy identitetni ifodalovchi eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Unda xalqning ruhiy olami, turmush tarzi, axloqiy mezonlari va estetik qarashlari o‘z aksini topadi [Wodak, de Cillia, Reisgl, & Liebhart, 2009; 8 & Keillor, 1999; 68]. Badiiy asarni boshqa tilga tarjima qilish esa ikki madaniyat o‘rtasidagi murakkab muloqot jarayonidir. Tarjima jarayonida matnning faqat lug‘aviy ma’nosini ko‘chirish yetarli bo‘lmaydi; undagi madaniy qatlam, tarixiy muhit, milliy ruh va mental xususiyatlar ham imkon qadar to‘liq aks ettirilishi zarur. Aks holda, tarjima yuzaki va sun’iy tus oladi, asarning asl mazmuni va badiiy ta’sir kuchi sezilarli darajada kamayadi. Ayniqsa, milliylik kuchli ifodalangan badiiy matnlarda bu masala yanada murakkablashadi, chunki ularda muayyan xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi til vositalari orqali mujassam bo‘ladi. Tarjimada milliylikni saqlash muammosi shundan iboratki, har bir til ortida o‘ziga xos madaniy tizim mavjud. Bir tildagi tushuncha yoki obraz boshqa tilda aynan o‘sha ma’no va hissiy yuklama bilan mavjud bo‘lmasligi mumkin. Tarjimon esa ana shu tafovutlarni hisobga olgan holda, matnning milliy koloritini yo‘qotmagan holda, uni yangi til muhitida qayta yaratishi kerak bo‘ladi. Bu jarayon ijodiy yondashuvni, keng madaniy bilimni va lingvistik sezgirlikni talab etadi. Shuningdek, tarjimon milliy mentalitetni anglay olishi, tarixiy va madaniy kontekstni to‘g‘ri talqin qilishi zarur. O‘zbek adabiyoti namunalari, xususan, tarixiy mavzudagi romanlar milliy identitetni ifodalashda alohida ahamiyatga ega. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ana shunday asarlardan biri bo‘lib, unda o‘zbek xalqining tarixiy hayoti, ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlari chuqur badiiy tasvirlangan. Asardagi til birliklari, obrazlar tizimi, murojaat shakllari va madaniy realiyalar milliy ruhni yorqin namoyon etadi. Shuning uchun ushbu roman tarjimasini tahlil qilish orqali milliylikni saqlash masalasini ilmiy asosda o‘rganish imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur tadqiqot til va identitet o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berishga hamda badiiy tarjimada milliylikni saqlashning nazariy asoslarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot doirasida milliy qadriyatlar, madaniy kodlar va mental xususiyatlarning badiiy matnda qanday ifodalanishi hamda ularning tarjimada qay darajada aks etishi masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik va uslubiy o‘zgarishlar, milliy koloritning saqlanish yoki yo‘qolish holatlari tahlil qilinadi. Ushbu masalalarni o‘rganish nafaqat tarjimashunoslik nazariyasini boyitadi, balki amaliy tarjima jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy identitetni to‘g‘ri va to‘liq yetkaza olgan tarjima madaniyatlararo muloqotni mustahkamlaydi, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni kengaytiradi. Shu jihatdan, badiiy tarjimada milliylikni saqlash masalasi bugungi globallashuv davrida alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda [Venuti, 2008; 102 & Hatim, 1997; 56].

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqot til, identitet va tarjima o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishga qaratilgan bo‘lib, unda identiklik tushunchasi markaziy nazariy kategoriya sifatida qaraladi. Identiklik shaxs yoki ijtimoiy guruhning o‘zini anglash jarayonini ifodalaydi va u insonning muayyan madaniy, ijtimoiy hamda milliy birlikka mansubligini his etishi bilan namoyon bo‘ladi. Bu hodisa faqat psixologik yoki sotsiologik jarayon sifatida emas, balki til orqali shakllanadigan madaniy ong mahsuli sifatida ham talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, badiiy matnlar identiklikni ifodalovchi muhim manba bo‘lib, tarjima jarayonida aynan shu o‘zlikning qay darajada saqlanib qolishi tadqiqotning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Tarjimashunoslikda identiklik tushunchasi badiiy matnda mujassam bo‘lgan milliy o‘ziga xoslik, madaniy belgilar va mental xususiyatlarning boshqa til vositalari orqali qay darajada to‘g‘ri va to‘liq ifodalanganini baholash mezoni sifatida qo‘llanadi. Demak, identiklikni

aniqlashda uch asosiy omil e’tiborga olinadi: o‘zlikni anglash, o‘xshashlikni tan olish hamda muayyan ijtimoiy-madaniy birlik bilan bog‘liqlikni saqlash. Ushbu omillar tarjima jarayonida matnning mazmuni bilan bir qatorda, uning madaniy qatlamini ham tahlil qilishni talab etadi [Erikson, 1950; 113 & Mead, 1934; 124]. Milliy identiklik esa umumiy identiklik tushunchasining muayyan ko‘rinishi bo‘lib, u shaxsning o‘zini aniq bir millatga mansub deb bilishi, o‘sha millatning tarixiy xotirasi, qadriyatlari va dunyoqarashini o‘zida mujassam etishi bilan belgilanadi. Badiiy asarlar milliy identiklikni mustahkamlovchi muhim vosita sanaladi, chunki ular millatning turmush tarzi, axloqiy me’yorlari, estetik qarashlari va tarixiy tajribasini obrazli shaklda ifodalaydi [Keillor & Hult, 1999; 69 & Wodak et al., 2009; 8]. Tarjima jarayonida esa ushbu xususiyatlarni saqlab qolish tarjimon oldida turgan eng murakkab vazifalardan biridir. Mazkur tadqiqotda milliy identiklikni aniqlash va baholash uchun bir qator indikatorlar tizimi ishlab chiqildi. Birinchi indikator – tarixiy-madaniy makon. Bu tushuncha asarda tasvirlangan davr, muhit va geografik makon orqali milliy xotira va tarixiy tafakkurning aks etishini bildiradi. Tarjimada ushbu makonning yo‘qolishi yoki umumlashtirib yuborilishi milliy koloritning susayishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchi indikator – davlat va xalq obrazi. Badiiy matnda jamiyat tuzumi, an’anaviy ijtimoiy munosabatlar va xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi turli obrazlar va voqealar orqali namoyon bo‘ladi. Tarjimada bu jihatlar saqlanmasa, asarning ijtimoiy va madaniy konteksti o‘zgarib ketadi. Uchinchi indikator – til va madaniyat birligi. Til birliklari, milliy iboralar, murojaat shakllari va madaniy realiyalar milliy identiklikning eng muhim tashuvchilaridir. Tarjima jarayonida aynan shu birliklar orqali milliy ruh uzatiladi yoki yo‘qoladi. Shuning uchun lingvokulturologik yondashuv tadqiqotda asosiy metodlardan biri sifatida qo‘llanadi. To‘rtinchi indikator – ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ifodasi. Asarda uchraydigan lavozim nomlari, turmush tarzi bilan bog‘liq terminlar, savdo va kundalik hayotga oid realiyalar jamiyatning tarixiy bosqichini aks ettiradi. Ularning tarjimada mos ekvivalent bilan berilishi yoki izoh orqali yetkazilishi milliy muhitni saqlashga xizmat qiladi. Beshinchi indikator – milliy ong va ruhiy qarshilik motivlari. Bu omil xalqning o‘z qadriyatlarini saqlashga intilishi, milliy g‘urur va o‘zlikni himoya qilish ruhini aks ettiradi. Badiiy matnda bu holat ko‘pincha qahramonlarning nutqi, qarorlari va ijtimoiy munosabatlar orqali ifodalanadi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, kontekstual sharhlash hamda umumlashtirish usullariga asoslanadi. Nazariy tahlil orqali identiklik va milliylik tushunchalarining ilmiy talqinlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida original matn va tarjima variantlari solishtirilib, milliy indikatorlarning saqlanish darajasi aniqlanadi. Kontekstual sharhlash esa har bir til birligining matn ichidagi madaniy yuklamasini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu nazariy yondashuv Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani tarjimalarini o‘rganishda qo‘llanadi. Asarda aks etgan urf-odatlar, tarixiy realiyalar, milliy obrazlar va til birliklari yuqoridagi indikatorlar asosida tahlil qilinadi. Shu orqali tarjimada milliy identiklikni ifodalash darajasi aniqlanib, til va identitet o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy jihatdan asoslab beriladi [Baker, 2011; 145 & Nord, 2005; 92].

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy identiklik ijtimoiy jihatdan shakllanadigan murakkab hodisa bo‘lib, u til, madaniyat va tarixiy kontekst bilan uzviy bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi. Til millatning o‘zligini ifodalash, madaniy qadriyatlar va tarixiy tajribani avloddan avlodga yetkazish vositasi sifatida xizmat qilgani bois, badiiy asar va uning tarjimasi orqali milliy identiklikni saqlash dolzarb vazifa hisoblanadi [Altarriba & Santiago-Rivera, 1994; 112 & de Zulueta, 1995; 30]. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, tarjimada milliy o‘zlikning yetarlicha aks etishi, asarning nafaqat lingvistik, balki madaniy va semantik qatlamini to‘liq ifodalash bilan bog‘liq. Keillor va Hultning milliy identiklikni “muayyan madaniyatga xos ma’nolar majmui” sifatida ta’riflashi tarjimada milliylikni saqlashning mohiyatini yanada aniqlashtiradi. Badiiy tarjimada mazkur madaniy ma’nolarni boshqa til vositalarida aniq va adekvat ifodalash tarjimonning eng muhim vazifalaridan biri bo‘ladi. Shuning uchun tarjimada milliylikni baholash mezonlari sifatida mualliflar ajratib ko‘rsatgan tarkibiy qismlarga e’tibor qaratish muhimdir. Birinchi tarkibiy qism – e’tiqod ti-

zimi. Tadqiqot ko‘rsatdiki, badiiy matnda e’tiqod milliy ong va madaniy qadriyatlarni ifodalashning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu diniy tasavvurlar, axloqiy me’yorlar, odatlar va an’anaviy qarashlar orqali namoyon bo‘ladi. “O‘tkan kunlar” romanida e’tiqod bilan bog‘liq leksik birliklar, marosimlar, urf-odatlar va nutqiy shakllar milliy ruhni ochib beruvchi asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi [Keillor & Hult, 1999; 68 & Freud, 1923; 90]. Ikkinchi tarkibiy qism – milliy meros. Badiiy asar tarixiy voqealar, ijtimoiy munosabatlar, urf-odatlar va madaniy realiyalar orqali millatning tarixiy va madaniy tajribasini aks ettiradi. “O‘tkan kunlar” romanida XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid o‘zbek jamiyatining turmush tarzi, qadriyatlari va an’anaviy hayoti keng tasvirlangan. Tarjimada bu elementlarni yo‘qotish yoki umumlashtirish asarning tarixiy-madaniy va madaniy-ma’naviy qiymatini pasaytiradi. Shu bois tarjimada milliy merosning adekvat talqini milliylikni saqlashning muhim sharti hisoblanadi [Axmadjonov, 2025; 27 & Atanasov, 2004; 6]. Uchinchi tarkibiy qism – etnotsentrizm. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, milliy o‘zlikni mustahkamlashda etnotsentrik qarashlar, personajlar nutqi, muallif pozitsiyasi va voqelik tasviri muhim rol o‘ynaydi. Tarjima jarayonida bu elementlarni neytrallashtirib yuborish milliy identiklikning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tarjimashunoslikda etnotsentrik mazmunni saqlash, milliy ruh va qadriyatlarni uzatishning muhim omili sifatida qaraladi. To‘rtinchi tarkibiy qism – madaniy o‘xshashlik va ijtimoiy muhitga bog‘liqlik. Milliy identiklikning shakllanishida boshqa madaniyatlar bilan bog‘liq o‘xshashliklar va madaniy kontekst orqali ifodalangan ijtimoiy-psixologik faktorlar ham katta ahamiyatga ega. Tarjimada ushbu omillarni hisobga olish, matnning madaniy qatlamini saqlash va uni yangi til muhitida tushunarli qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, tarjimada madaniy o‘xshashlik va ijtimoiy realiyalarni yo‘qotmaslik asarning o‘ziga xos milliy ruhini saqlab qolishga xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarjimada milliylikni saqlash e’tiqod tizimi, milliy meros, etnotsentrik qarashlar va madaniy o‘xshashlik kabi indikatorlarni kompleks yondashuv asosida hisobga olishni talab qiladi. Tarjima jarayonida ushbu tarkibiy qismlarni e’tiborga olish orqali asarning lingvistik, madaniy va estetik qatlamlari to‘liq saqlanadi, bu esa til va identitet o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beruvchi nazariy asos sifatida xizmat qiladi. “O‘tkan kunlar” romanining tarjimalari orqali milliy identiklikni yetkazish, boshqa til va madaniyat vakillariga asarning madaniy-ma’naviy mazmunini to‘laqonli yetkazish imkonini beradi [Brown, 2002; 557 & Wodak et al., 2009; 8].

MUNOZARA

Identiklik tushunchasi tarixan falsafiy, psixologik va sotsiologik nazariyalar doirasida shakllangan bo‘lib, uning o‘rganilishi ko‘p qirrali yondashuvlarni talab qiladi. Falsafiy tafakkurda identiklik insonning o‘zligini anglash, mavjudlik va o‘zaro munosabatlar bilan bog‘liq murakkab tushuncha sifatida qaralgan bo‘lsa, psixologik yondashuvda bu hodisa shaxsning ruhiy jarayoni bilan bog‘langan [Freud, 1923; 90]. Shu bilan birga, Erik Erikson identiklikni shaxsning fundamental savoli “Men kimman?”ga javob izlash jarayoni sifatida ilmiy jihatdan tizimlashtiradi. Eriksonning yondashuvi identiklikni faqat individual hodisa emas, balki ijtimoiy va jamoaviy omillar bilan uzviy bog‘liq murakkab jarayon sifatida talqin qilishi bilan ahamiyatlidir. Tarjima tadqiqotlari nuqtayi nazaridan esa identiklik badiiy matnda muallifning va jamiyatning ongini aks ettiruvchi muhim semantik va madaniy qatlam sifatida qaraladi. Badiiy matn millatning madaniy qadriyatlari, tarixiy xotirasi va mentalitetini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bilan birga, tarjimada ushbu qatlamning yetarlicha saqlanishi asarning milliy ruhini va madaniy o‘zligini boshqa til va madaniyat vakillariga yetkazish uchun zarurdir. Freyd va Eriksonning izlanishlarida etnik va milliy omillarning tarjima jarayonidagi o‘rni yetarlicha yoritilmagan bo‘lsa-da, ularning nazariyasi badiiy matnni shaxsiy va ijtimoiy kontekst bilan bog‘lab tushuntirish imkonini beradi [Erikson, 1950; 113]. Milliy identiklikni tarjima kontekstida o‘rganish J.G. Midning yondashuvi orqali yanada aniqlik kasb etadi. Mid identiklikni ijtimoiy munosabatlar, kollektiv tajriba va ramziy muloqot mahsuli sifatida izohlaydi va uni doimiy ravishda kontekstga bog‘liq, dinamik jarayon deb hisoblaydi. Tarjima jarayonida bu yondashuv milliy identiklikni o‘zgarmas yoki qat’iy hodisa sifatida emas, balki madaniyatlararo muloqot jarayonida qayta

talqin qilinadigan tushuncha sifatida qabul qilishni talab qiladi [Mead, 1934; 124]. Shu nuqtai nazardan, G. Stounning identiklikni vaziyatga moslashuvchi, o‘zgaruvchan ijtimoiy konstrukt sifatida izohlashi tarjima jarayonidagi transformatsiyalarni tushuntirishda muhim nazariy asos vazifasini o‘taydi. Milliy identiklikning tarixiy rivojlanishi badiiy asarlar orqali, xususan milliy adabiyot namunalarida o‘z aksini topadi [Stone & Rose, 1962; 116–117]. XIX-XX asrlar o‘zbek adabiyotida shakllangan millatchilik g‘oyalari milliy ong, tarixiy xotira va madaniy merosni ifodalovchi asosiy mavzuga aylangan. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ham ushbu tarixiy-madaniy sharoit mahsuli bo‘lib, unda o‘zbek milliy identikligi til, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar va tarixiy realiyalar orqali badiiy jihatdan ifodalangan. Tarjima jarayonida bu elementlarni saqlab qolish asarning milliy ruhini yetkazish uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda milliy identiklikning ijtimoiy roli turlicha talqin qilinadi. Bir tomondan, u jamiyatni birlashtiruvchi va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlovchi omil sifatida baholanadi. Ikkinchi tomondan, noto‘g‘ri yoki yuzaki talqin qilingan holatlarda identiklik ziddiyat va ajralishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli tarjimada milliy identiklikni ideallashtirmasdan, ammo uning madaniy, tarixiy va ijtimoiy ahamiyatini yo‘qotmasdan yetkazish muhim vazifa hisoblanadi. Etnomadaniy va fuqarolik yondashuvlari ham tarjimada milliylikni saqlashni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega. Devid Braun ajratgan etnomadaniy va fuqarolik millatchiligi modellari badiiy asarlarda milliylikni turlicha talqin qilish imkonini beradi. “O‘tkan kunlar” romanida etnomadaniy yondashuv ustun bo‘lib, unda milliy identiklik tarixiy meros, urf-odatlar va madaniy qadriyatlar orqali ifodalanadi. Tarjima jarayonida ushbu unsurlarni saqlab qolish asarning milliy ruhini yetkazishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [Brown, 2002; 557]. Shuningdek, milliy identiklikni tarjima jarayonida talqin qilish masalasi madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyalari bilan ham chambarchas bog‘liqdir [Wodak et al., 2009; 8]. Har bir badiiy matn muayyan tarixiy davr, ijtimoiy muhit va madaniy tajriba mahsuli bo‘lgani sababli, undagi identiklik elementlari bevosita millatning dunyoni idrok etish modeli bilan aloqador hisoblanadi. Tarjimon esa nafaqat til vositalarini almashtiruvchi, balki ikki madaniyat o‘rtasida vositachilik qiluvchi subyekt sifatida maydonga chiqadi [Mead, 1934; 124]. Shu bois tarjima jarayonida milliy identiklik unsurlari ko‘pincha transformatsiyaga uchraydi: ayrim realiyalar izoh orqali beriladi, ba’zilari esa kontekstual moslashtirish asosida talqin qilinadi. Bu jarayon identiklikning yo‘qolishi emas, balki uning boshqa madaniy makonda qayta shakllanishi sifatida tushunilishi lozim [Stone & Rose, 1962; 116-117]. Badiiy tarjimada milliy o‘zlikni yetkazish darajasi ko‘p jihatdan tarjimonning madaniy kompetensiyasiga bog‘liq. Agar tarjimon manba madaniyat tarixini, urf-odatlarini va mentalitetini chuqur anglamasa, matndagi identiklik qatlamlari soddalashtirilishi yoki neytrallashib ketishi mumkin. Natijada asarning milliy koloritini belgilovchi muhim semantik belgilar yo‘qoladi. Shu nuqtai nazardan, milliy identiklikni saqlash tarjimada nafaqat lingvistik mahorat, balki madaniy sezgirlik va tarixiy tafakkurni ham talab etadigan murakkab ijodiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi [Brown, 2002; 557].

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy identiklik har bir jamiyatda millatning ma’naviy va madaniy asosini tashkil etuvchi muhim tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat davlat siyosatini shakllantirish va jamiyatning umumiy maqsad va qadriyatlarini belgilashda, balki aholining tarixiy xotirasi va kelajakni anglashdagi qarashlarini mustahkamlashda ham asosiy vosita vazifasini o‘taydi. Shu jihatdan til milliy identiklikni ifodalash va avloddan avlodga uzatish mexanizmi sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, badiiy asarlar va ularning tarjimalari orqali millatning madaniy merosi keng auditoriyaga yetkaziladi. Badiiy tarjimada milliylikni saqlash masalasi faqat lingvistik masala sifatida ko‘rilmaydi; u ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekst bilan chambarchas bog‘liq murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli jamiyatlarda milliy identiklikning ifodalanishi ko‘pincha murakkab va nozik muvozanatni talab qiladi. Turli etnik guruhlar o‘rtasidagi madaniy farqlar, o‘zaro raqobat va tarixiy tajribalar milliy o‘zlik tushunchasining turlicha talqin qilinishiga, ba’zan esa keskinlashuviga olib kelishi mumkin. Shu sababli tarjimada

milliy identiklikni ideallashtirmasdan, uning tarixiy, madaniy va ma’naviy ahamiyatini saqlagan holda ifodalash muhim vazifa hisoblanadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tarjimada milliylikni saqlash til va identitet o‘rtasidagi nozik bog‘liqlikni ta’minlash bilan bog‘liq. Tarjima jarayonida milliy qadriyatlar, ramzlar va madaniy belgilar o‘z ma’nosini yo‘qotmasdan boshqa madaniy makonga ko‘chirilishi lozim. Bunday yondashuv asarning estetik va ma’naviy qiymatini saqlab qolish bilan birga, o‘quvchilarga millatning tarixiy xotirasi, urf-odatlari va madaniy o‘ziga xosligini to‘laqonli anglash imkonini beradi. Shu bilan tarjima nafaqat til o‘tkazgich, balki madaniyatlararo ko‘prik vazifasini ham bajaradi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari tarjimada milliy identiklikni saqlash til va madaniy identitet o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerakligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv nafaqat tarjimaning lingvistik aniqligi, balki uning madaniy va ma’naviy mazmunini ham ta’minlaydi. Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjimada milliylikni saqlash millatning tarixiy xotirasi va madaniy merosini boshqa tillar va madaniyatlar doirasida samarali ifodalashning asosiy sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Altarriba, J., va Santiago-Rivera, A.L. (1994). Ikki tillilik va madaniy identlik. American Psychological Association.
2. Atanasov, P. (2004). Makedoniya milliy identligi: Unitar va tobe milliy miflar va rivoyatlar o‘rtasidagi miqdoriy farqlar. South East Europe Series, Discussion Paper, 32, 6.
3. Axmadjonov, N.B. (2025). Milliy identlik konsepsiyasining nazariy-metodologik jihatlari tahlili. XXI asr: fan va ta’lim masalalari, №3, 27.
4. Brown, D. (2002). Nima uchun qurilgan millatchilik va etnik mafkuralar bir-biri bilan to‘qnashishi mumkin? The Pacific Review, 15(4), 557.
5. Erikson, E.H. (1950). Bolalik va jamiyat. Nyu-York: Norton and Company, Inc.
6. Freud, Z. (1923). Men va U [Das Ich und das Es]. Vena, Leyptsig: Internationalen Psychoanalytischen Verlag.
7. Hatim, B., va Mason, I. (1997). Tarjimon kommunikator sifatida. Routledge.
8. Keillor, B., va Hult, G. (1999). Milliy identlikni o‘rganish bo‘yicha besh mamlakatda olib borilgan tadqiqot. International Marketing Review, 16(1), 68.
9. Mead, G.H. (1934). Ong, shaxs va jamiyat. Chikago: University of Chicago Press.
10. Sapir, E. (1921). Til: Nutqni o‘rganishga kirish. Harcourt, Brace & Company.
11. Stone, G.P., va Rose, A.M. (1962). Tashqi ko‘rinish va shaxs. Inson xulq-atvori va ijtimoiy jarayonlar: Interaksionistik yondashuv (b. 116–117). Nyu-York: Rinehart & Winston.
12. Venuti, L. (2008). Tarjimonning ko‘rinmasligi: Tarjima tarixi. Routledge.
13. Wodak, R., de Cillia, R., Reisgl, M., va Liebhart, K. (2009). Milliy identlikning diskursiv qurilishi. Edinburg: Edinburgh University Press.
14. de Zulueta, F. (1995). Til va madaniy identlik. Routledge.

REFERENCES

1. Altarriba, J., & Santiago-Rivera, A.L. (1994). Bilingualism and cultural identity. American Psychological Association.
2. Atanasov, P. (2004). Macedonian national identity: Quantitative differences between unitary and subaltern national myths and narratives. South East Europe Series, Discussion Paper, 32, 6.
3. Axmadjonov, N.B. (2025). Milliy identlik konsepsiyasining nazariy-metodologik jihatlari tahlili. XXI asr: fan va ta’lim masalalari, №3, 27.

4. Brown, D. (2002). Why might constructed nationalist and ethnic ideologies come into confrontation with each other? The Pacific Review, 15(4), 557.
5. Erikson, E.H. (1950). Childhood and society. New York: Norton and Company, Inc.
6. Freud, S. (1923). Das Ich und das Es. Wien, Leipzig: Internationalen Psychoanalytischen Verlag.
7. Hatim, B., & Mason, I. (1997). The translator as communicator. Routledge.
8. Keillor, B., & Hult, G. (1999). A five-country study of national identity. International Marketing Review, 16(1), 68.
9. Mead, G.H. (1934). Mind, self, and society. Chicago: University of Chicago Press.
10. Sapir, E. (1921). Language: An introduction to the study of speech. Harcourt, Brace & Company.
11. Stone, G.P., & Rose, A.M. (1962). Appearance and the self. In Human behavior and social processes: An interactionist approach (pp. 116–117). New York: Rinehart & Winston.
12. Venuti, L. (2008). The translator's invisibility: A history of translation. Routledge.
13. Wodak, R., de Cillia, R., Reisgl, M., & Liebhart, K. (2009). The discursive construction of national identity. Edinburgh: Edinburgh University Press.
14. de Zulueta, F. (1995). Language and cultural identity. Routledge.